



Axmedov Farxod Saydalieyovich

*Podpolkovnik Malaka oshirish instituti Kasbiy tayyorgarlik fakulteti Maxsus fanlar sikli
o'qituvchisi +99899 8226327*

Аннотация: *Mazkur maqolada bolalar huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar berilgan*

Таянч сўзлар: *Bola huquqlari, davlat himoyasi, bolalarni himoya qilish, bola manfaatlari, huquqiy kafolat, Konvensiya (Bola huquqlari to'g'risida), ijtimoiy himoya, ta'lim va tarbiya, zo'ravonlikdan himoya.*

Har bir davlatning kelajagi, eng avvalo, uning yosh avlodiga yaratilgan sharoit, berilayotgan imkoniyat va ko'rsatilayotgan e'tibor bilan belgilanadi. Bola — jamiyatning eng nozik, ayni paytda eng qimmatli bo'g'inidir. Shuning uchun ham bolalarning tabiiy huquqlari va manfaatlarini ta'minlash, ularni har qanday zo'ravonlik, beparvolik yoki kamsitishdan himoya qilish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sanaladi.

Bugungi globallashuv va axborot oqimlari jadallashgan davrda bolalar tarbiyasi, xavfsizligi, ruhiy va jismoniy sog'lig'ini asrash yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, bola huquqlarining xalqaro meyorlar asosida mustahkamlanishi, milliy qonunchilikda keng aks etishi hamda amaliy hayotda to'liq ta'minlanishi har bir jamiyatning burchi va mas'uliyatidir.

Mamlakatimizda onalik va bolalikni qo'llab-quvvatlash, bolalarning ma'naviy va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi talablariga rioya etilishini ta'minlash maqsadida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Dunyoning ko'plab mamlakatlari qatori mamlakatimizda ham 1 iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni keng nishonlanib kelinmoqda. Chunki, ushbu bayramning maqsadi – ulg'ayib kelayotgan yosh avlodning kelajakda ma'nan boy, jismonan sog'lom va axloqan pok bo'lib voyaga yetkazishdir. Ularga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik esa yurt ravnaqi uchun qo'yilayotgan mustahkam poydevordir.

Bolaning eng yaxshi manfaatlarini ta'minlash, bolalar huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha O'zbekiston davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. O'zbekiston, mamlakatda bolalar huquqlarini himoya qilish va takomillashtirish borasida sezilarli yutuqlarga erishdi.

O'zbekiston Respublikasi Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyani, bolalar savdosi, bolalar fohishabozligi va bolalar pornografiyasini, shuningdek Bolalarni qurolli mojarolarga jalb qilish to'g'risidagi Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning fakultativ protokollarini ratifikatsiya qildi. Konvensiya va fakultativ protokollarning asosiy qoidalari



O'zbekiston Respublikasining «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida» gi qonunida amalga oshiriladi.

Bola huquqlari to'xtalishdan oldin, quyidagi tushunchalarga ta'rif berib o'tish maqsadga muvofiqdir.

- bola (bolalar) - o'n sakkiz yoshga to'lgunga (voyaga yetgunga) qadar bo'lgan shaxs (shaxslar);

- bolaning qonuniy vakillari - ota-onalar, farzandlikka oluvchilar, vasiylar, homiylar;

- vasiylik va homiylik - ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ularga ta'minot, tarbiya hamda ta'lim berish, shuningdek ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida joylashtirishning huquqiy shakli. Vasiylik o'n to'rt yoshga to'lmagan, homiylik esa o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan bolalarga nisbatan belgilanadi;

- yetim bola - otasi ham, onasi ham vafot etgan yoki ular sud qaroriga binoan vafot etgan deb e'lon qilingan bola;

- jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bola - nogironlikni belgilash uchun yetarli bo'lmagan jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) va (yoki) ruhiy nuqsonlari bo'lgan bola;

- ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar - yuzaga kelgan holatlar sababli og'ir turmush sharoitida qolgan, davlat va jamiyat tomonidan alohida himoya qilishga hamda qo'llab-quvvatlashga muhtoj bolalar, shu jumladan:

- nogironligi bo'lgan bolalar;

- jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar;

- yetim bolalar;

- ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar;

- ixtisoslashtirilgan bolalar muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalar;

- muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan bolalar;

- kam ta'minlangan oilalardagi bolalar;

- jinoiy javobgarlikka tortilgan va jazoni ijro etish muassasalarida turgan bolalar;

- zo'ravonlik va ekspluatatsiya, qurolli mojarolar va tabiiy ofatlar natijasida jabrlangan bolalar;

- nogironligi bo'lgan bolalar (bola) - barqaror jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) èki ruhiy nuqsonlari mavjudligi oqibatida haèt faoliyati cheklanganligi munosabati bilan davlat va jamiyat tomonidan ijtimoiy èrdam ko'rsatilishiga hamda o'z huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishiga muhtoj bo'lgan bolalar (bola);

- ota-onaning o'rnini bosuvchi shaxslar - qonunda belgilangan tartibda bolaga nisbatan ota-onalik huquqini amalga oshiruvchi va ota-onalik majburiyatlarini bajaruvchi, lekin bolaning ota-onasi bo'lmagan shaxslar (farzandlikka oluvchilar, vasiylar va homiylar);

- ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bola - ota-onalik huquqidan mahrum qilinganligi yoki cheklanganligi, bedarak yo'qolgan yoki muomalaga layoqatsiz deb topilganligi yohud muomalaga layoqati cheklanganligi, bolani tarbiyalashdan yoki uning



huquq va manfaatlarini himoya qilishdan bo'yin tovlaganligi, shu jumladan, uzrsiz sabablarga ko'ra o'z bolasini tug'uruqxona èki boshqa davolash muassasasidan, tarbiya, aholini ijtimoiy himoyalash muassasasi va shunga o'xshash boshqa muassasalardan olishdan bosh tortganligi yoxud ota-ona qaramog'i mavjud bo'lmagan boshqa holatlar sababli ota-ona èki yagona ota (ona) qaramog'idan mahrum bo'lgan bola¹⁹.

O'zbekiston xalqaro hamjamiyatning a'zosi sifatida bola huquqlarini ta'minlash va himoya qilish bo'yicha dunyo davlatlarining yuritayotgan xalqaro siyosati tarafdori ekanini ma'lum qilgan holda ilk davrlardanoq mamlakatda buning huquqiy asoslarini yaratish yuzasidan chora-tadbirlarni amalga oshirgan. Buni amaldagi qonunchilikdan ko'rish mumkin. Avvalo, Konstitusiyaning 77-moddasida ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majburlar.

Davlat va jamiyat yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqishni, tarbiyalashni, ularning ta'lim olishini, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishini ta'minlaydi, shu maqsadda xayriya faoliyatini rag'batlantiradi.

Farzandlar ota-onasining nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir.

Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan fahrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish to'g'risida g'amxo'rlik qilinishi (78-modda) bosh qomusda aks ettirilgan.

Shuningdek, bola huquqlarining asoslari Oila kodeksining normalari bilan tartibga solinadi.

Ushbu Kodeksning 11-bobida voyaga yetmagan bolalarning shaxsiy nomulkiy huquqlari:

- yashash va tarbiyalanish; ota-onasi va boshqa qarindoshlari bilan ko'rishish;
- himoyaga bo'lgan huquq;
- o'z fikrini ifoda etish;
- ism, familiya va otasining ismini olish va o'zgartirish kabilar shular jumlasidandir.

«Bola huquqlarining asosiy kafolatlari to'g'risida»gi qonun ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning 7-moddasida O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, ushbu qonun va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq har bir bolaga inson hamda fuqaro huquqlari va erkinliklari tegishli bo'ladi hamda davlat tomonidan kafolatlanishi belgilangan.

Nikohda va nikohsiz tug'ilgan bolalar teng hamda har taraflama himoyadan foydalanadi.

¹⁹ O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 7-yanvardagi . «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida» gi O'RQ-139 son Qonuni.



Davlat bolaning barcha shakllardagi kamsitishlardan himoya qilinishini ta'minlash uchun zarur choralarni ko'radi. Bola huquqlari cheklanishi mumkin emas, qonunda belgilangan hollar bundan mustasno. Qonunda bolaning uzviy huquqi sifatida yashash huquqi, har bir bolaning tug'ilgan paytdan e'tiboran familiya, ism, ota ismi olish, millati va fuqaroligiga ega bo'lish huquqiga, shuningdek, ularni saqlab qolish huquqiga egaligi qayd etilgan.

Bolaning erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi kafolatlanib, davlat bunda bolaning shaxsi, uy-joyi daxlsizligini, xat-xabarlari sir tutilishini ta'minlaydi hamda bolani ekspluatatsiya va zo'ravonlikning barcha shakllaridan, shu jumladan, jismoniy, ruhiy va jinsiy zo'ravonlikdan, qiynoqlarga solishdan èki shafqatsiz, qo'pol yohud inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa shakldagi muomaladan, shahvoniy shilqimliklardan, huquqbuzarliklar va g'ayriijtimoiy harakatlar sodir etishga jalb etilishidan himoya qilinishini amalga oshiradi.

Bolaning ota-onasi bo'lmaganda, ular ota-onalik huquqidan mahrum qilinganda hamda bola ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan boshqa hollarda uning oilada yashash hamda tarbiyalanish huquqi vasiylik va homiylik organi tomonidan ta'minlanadi. Shu bilan birga bolaning xususiy mulkka ega bo'lish, turar joyli bo'lish, mehnat qilish (o'n olti yoshdan, istisno tariqasida ota-onasidan yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning roziligi bo'lganda esa o'n besh yoshdan boshlab) va dam olish, malakali tibbiy xizmatdan foydalanish, bilim olish kabi asosiy huquqlari ham ushbu qonunda mustahkamlangan.

So'nggi yillarda bola huquqlari yo'nalishida O'zbekistonda amalga oshirilgan muhim o'zgarish sifatida Prezidentning 2021-yil 9-avgustdagi «Bola huquqlarining kafolatlarini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6275-sonli farmoniga asosan Bolalar ombudsmani institutining joriy qilinishini aytish mumkin.

O'z navbatida, «Bola huquqlarining kafolatlarini ta'minlash tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi qonun loyihasi bilan jinoyat qonunchiligida voyaga yetmaganlarga nisbatan insonparvarlikni kuchaytirish maqsadida ularni jinoiy javobgarlikka tortish yoshini o'n uch yoshdan o'n to'rt yoshga ko'tarildi, voyaga yetmaganlarning jinsiy daxlsizligiga qarshi jinoyatlar, xususan, Jinoyat kodeksining 128-va 129-moddalarining jazo choralari kuchaytirildi.

Bola huquqlari – bolaga nisbatan inson huquqlari toifasi, irqi, jinsi, tili, dini, tug'ilgan joyi, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiyligi, ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, har bir bola ega bo'lishi kerak bo'lgan huquq va erkinliklardir. Xalqaro huquqda 18 yoshga etmaganlarning barchasi bola deb tan olingan.

Bola huquqlari bo'yicha xalqaro va milliy darajada ko'plab maxsus hujjatlar mavjud. Bola huquqlari to'g'risidagi xalqaro darajadagi asosiy hujjat Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya hisoblanadi. Konvensiya Nyu-Yorkda 1989-yil 20- noyabrda qabul qilingan. Unda 54 ta moddadan iborat bo'lib, ularda bolalarning huquqlari. Konvensiyaga kiritilgan barcha huquqlar barcha bolalarga nisbatan qo'llaniladi.



Konvensiyada birinchi marta bola Konvensiyani ratifikatsiya qilgan davlatlar «hurmat qilish va kafolatlash» talab qilinadigan huquqlarga ega bo'lgan shaxs sifatida ko'rib chiqiladi. Ushbu qoida bola jamiyatning juda himoyasiz a'zosi

ekanligi va shuning uchun alohida himoyani talab qilishi va bunga loyiq ekanligini ko'rsatadi.

Konvensiyaga binoan, bola mustaqil shaxs sifatida qabul qilinadi. Konvensiya bolani o'ziga xos huquqlarga ega bo'lgan shaxs sifatida tavsiflaydi: yashash huquqi (6- modda), oila qurish (9-modda), ismi va fuqaroligi bo'yicha.

Ta'lim to'g'risida (7-modda), zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida (19-modda), tenglik, fikr va so'z erkinligi to'g'risida (13-modda), dam olish va hordiq chiqarish (31-modda), tibbiy. xizmat ko'rsatish va sog'liqni saqlash (24-modda), davlat èrdamida (18-27-modda) va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasi Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyani 1992-yil 9-dekabrda ratifikatsiya qildi.

O'zbekistonda bola huquqlari quyidagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi⁵⁰:

O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi;

O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi;

O'zbekiston Respublikasining «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida» gi Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining «Vasiylik va homiylik to'g'risida» gi Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida» gi Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi Qonuni va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni qabul qilinishi bilan «Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2019-yil 22-apreldagi PQ-4296-sonli qaroriga binoan Ombudsman hozirda o'z o'rinbosariga – bolalar huquqlari bo'yicha vakilga ega.

2021-yilning 9-avgust kuni Bola huquqlarining kafolatlarini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6275-son farmoni e'lon qilindi.

Biroq shuni hisobga olish zarurki, ijtimoiy munosabatlardagi muammolarni hal qilishda huquq normasi qabul qilinishining o'zigina yetarli bo'lmaydi. Masalan, raqamlarga e'tibor qaratsak, BMT rasmiy saytidagi ma'lumotlarga ko'ra, dunyodagi har beshinchi bola o'ta qashshoqlikda yashaydi. Bir milliardga yaqin odam kuniga 1,90 dollardan kam daromad bilan kun kechiradi va ularning yarmi bolalarga to'g'ri keladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar jamg'armasi (YUNISEF) o'z hisobotida 5 yoshgacha bo'lgan qariyb 8 million bolaning hayoti surunkali to'yib ovqatlanmaslik sabab xavfi ostida ekanini ma'lum qildi.

Hisobotga ko'ra, bu bolalarning aksariyati oziq-ovqat va tibbiy vositalar taqchilligidan qattiq qiynalayotgan 15 mamlakatda yashaydi. Inqirozdagi ushbu davlatlar orasida Afg'oniston, Efiopiya, Gaiti va Yaman bor. To'yib ovqatlanmaslik immunitetning zaiflashishiga olib keladi, bu esa 5 yoshgacha bo'lgan bolalar o'rtasida o'lim xavfini yaxshi ovqatlangan bolalarga nisbatan 11 baravar oshiradi.



Hisobotda aytilishicha, 2022-yil boshidan buyon yana 260 ming bola to'yib ovqatlanmaslikdan aziyat chekkan. Ukrainadagi mojaro va dunyoning ayrim qismlarida davom etayotgan iqlim o'zgarishi sabab qurg'oqchilik tufayli oziq-ovqat narxi keskin ko'tarildi. Hisobotda aytilishicha, COVID-19 ning davom etayotgan iqtisodiy ta'siri ham bolalarning to'yib ovqatlanmasligiga olib kelmoqda. Shuningdek, qurolli mojarolar, urush xavfi va bolalar mehnatidan noqonuniy foydalanish bolalar haëtiga juda ko'p muammolarni keltirib chiqaradi.

Jumladan, hozirda 5 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan 153 millionga yaqin bolalar mehnat qilishga majburlanishi aytiladi. Raqamlardan ko'rinib turganidek, garchi dunyo davlatlari bolalar manfaatlarining himoyasi yo'lida yakdil xalqaro va ichki siyosatni tanlashganiga qaramay, rivojlanayotgan va qoloq davlatlarda muammolar talayligicha qolmoqda. Bu esa soha bo'yicha qilinadigan ishlarning hali ko'pligini anglatadi.

Huquqiy demokratik jamiyat qurar ekanmiz, mamlakatimizda bola huquqlarini to'la himoyalash, uning to'laqonli yashashi, shaxs sifatida kamolga yetishiga shartsharoit yaratish bosh maqsadimiz bo'lib qolmog'i lozim. Zero, bugungi yoshlar ertaga yurtimizning ishongan kuchiga aylanadi.

Xulosa o'rnida bola huquqlarini himoya qilish – bu faqatgina huquqiy vazifa emas, balki jamiyatning eng muhim ma'naviy burchidir. Davlat tomonidan qabul qilinayotgan qonunlar, dasturlar va islohotlar bolalarning sog'lom, baxtli va erkin rivojlanishi uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Ammo bola manfaatlarini ta'minlash faqat davlatning emas, balki oilaning, ta'lim muassasalarining, nodavlat tashkilotlarning va har bir ongli fuqaroning ham mas'uliyatidir.

Bugungi kunda bolalarni himoya qilish tizimi tobora takomillashib, xalqaro standartlarga moslashib borayotgan bo'lsa-da, amaliyotda bu borada muntazam ravishda e'tibor va hamkorlikni kuchaytirish talab etiladi. Har bir bola o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish, sog'lom hayot kechirish va munosib tarbiya olish huquqiga ega. Ushbu huquqlarning to'liq ta'minlanishi esa jamiyatning barqaror rivoji, davlatning ertangi istiqboli va millat kelajagining mustahkam poydevoridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. –T:O'zbekiston, 2023.;
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. –T., 2024. – Lex.uz.;
3. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. –T., 2024. – Lex.uz.;
4. O'zbekiston Respublikasining Oila Kodeksi T:O'zbekiston, 2023 – Lex.uz.;
5. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi;
6. O'zbekiston Respublikasining «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida» gi Qonuni;
7. O'zbekiston Respublikasining «Vasiylik va homiylik to'g'risida» gi Qonuni;
8. Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya



9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 22.04.2019-yildagi PQ-4296-son Qarori.
10. <https://zamin.uz/dunyo/102340>.
11. <https://www.unicef.org/uzbekistan/media/3401>.
12. <https://gov.uz/qr/advice/document/2675/>.